

journal homepage:

<https://topjournals.uz/index.php/jgnr>

## THE CONNECTION OF POPULATION MIGRATION AND SETTLEMENT WITH LABOR RESOURCES (IN THE CASE OF KHOJAABAD DISTRICT)

**Shairakhan Ozganova**

*Master's student*

*National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [uzganovasoira@gmail.com](mailto:uzganovasoira@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** population, population employment, migration, labor migration, emigrants, immigrants, Kyrgyz Republic, Osh, Jalalabad, Russian Federation.

**Received:** 12. 12. 22

**Accepted:** 14. 12. 22

**Published:** 16. 12. 22

**Abstract:** At a time when the population of our republic is increasing year by year, it is important to geographically study the population and labor resources of small regions. This, first of all, opens the possibilities of labor resources, workforce and population employment depending on the population of the regions. Also, the regions of the Republic create an opportunity to form the labor market. Therefore, it is important to analyze the demographic indicators of small regions, to make suggestions and recommendations from a geographical point of view. In this article, the dependence of population migration and settlement on labor resources in Khojaabad district of Andijan region is analyzed, recommendations and conclusions are given.

## AHOLI MIGRATSİYASI VA JOYLANISHINING MEHNAT RESURSLARI BILAN BOĞ'LQLIGI (XO'JAOBOD TUMANI MISOLIDA)

**Shoiraxon O'zganova**

*Magistrant*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [uzganovasoira@gmail.com](mailto:uzganovasoira@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** aholi, aholi bandligi, migratsiya, mehnat migratsiyasi, emmigrantlar, immigrantlar, Qirg'iziston Respublikasi, O'sh, Jalolobod, Rossiya Federatsiyasi.

**Annotatsiya:** Republikamiz aholisi son jihatdan yildan-yilga oshib borayotgan vaqtda, kichik hududlarning aholi va mehnat resurslarini geografik jihatdan o'rGANISH muhim ahamiyatga ega. Bu esa avvalo,

hududlarning aholiga bog'liq holda mehnat resurslari, ishchi kuchi va aholi bandligi imkoniyatlarini ochadi. Shuningdek, Respublika hududlari mehnat bozorini shakllantirish imkonini yaratadi. Shu sababli, kichik hududlarning demografik ko'rsatkichlarini tahlil qilish, geografik nuqtayi-nazardan taklif va tavsiyalar berish muhimdir. Ushbu maqolada, Andijon viloyati Xo'jaobod tumani aholi migratsiyasi va joylanishning mehnat resurslarga bog'liqligi tahlil qilinadi, tavsiya va xulosalar beriladi.

## **СВЯЗЬ МИГРАЦИИ И РАССЕЛЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ С ТРУДОВЫМИ РЕСУРСАМИ (НА ПРИМЕРЕ ХОДЖААБАДСКОГО РАЙОНА)**

**Шаирахан Озганова**

*студент магистратуры*

*Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [uzganovasoira@gmail.com](mailto:uzganovasoira@gmail.com)*

### **О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** население, занятость населения, миграция, трудовая миграция, эмигранты, иммигранты, Кыргызская Республика, Ош, Джалаал-Абад, Российская Федерация.

**Аннотация:** В условиях, когда население нашей республики увеличивается из года в год, важно географически изучить население и трудовые ресурсы небольших регионов. Это, в первую очередь, открывает возможности трудовых ресурсов, рабочей силы и занятости населения в зависимости от численности населения регионов. Также регионы республики создают возможность для формирования рынка труда. Поэтому важно анализировать демографические показатели малых регионов, вносить предложения и рекомендации с географической точки зрения. В данной статье анализируется зависимость миграции и расселения населения от трудовых ресурсов в Ходжаабадском районе Андижанской области, даются рекомендации и выводы.

### **KIRISH**

Aholining mehnat resurslar tarkibiga jins va yosh tarkibi o'z ta'sirini ko'rsatganidek, migratsiya jarayoni ham nafaqat mehnat resurslari tarkibiga balki, aholi takro barpo bo'lishiga ham o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Asariyat hollarda, migratsiya jarayoni takror barpo bo'lish bilan bog'langan. Ma'lumki, aholi migratsiyasi – bu kishilarning turli sabab va omillar natijasida o'z yashash va ish joyolarini ma'muriy chegaralardan o'tgan holda o'zgartirishidir [1,131b].

## ASOSIY QISM

Mamlakatda demografik jarayonlar hususan, tug‘ilishning ortib borishi - aholi soni hamda mehnat resurslarining ko‘payishiga turtki bo‘ladi. Shu sababli, migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq bo‘lgan omillarni o‘rganish muhimdir. Respublikamiz migratsiya jarayonlari va xalqaro mehnat resursi almashinuvining faol ishtirokchisi hisoblanmoqda. Shu bilan birgalikda tug‘ilish darajasi baland, aholi soni zich bo‘lgan hududlarda migratsiya jarayonlari jadal kechadi. Shuning uchun ham aynan Andijon viloyati mehnat resurslarining migratsiya jarayonlari bilan bog‘liqlik jihatini o‘rganish muhimdir. Ma’lumotlarga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasining har yilgi e’lon qilinadigan demografik hisobotida, O‘zbekistondan kelayotgan mehnat migrantlarining eng katta qismi Andijon hamda Samarcand viloyatlaridan kelgan migrantlardir. Bunga ko‘ra O‘zbekistondan borgan migrantlar asosan, Samara, Saratov, Kaliningrad viloyati va Oltoy o‘lkasida yig‘ilgan bo‘lib, aynan shu viloyatlarda ishlovchi o‘zbek emmigrantlari xorijiy ish kuchining deyarli yarmini tashkil etadi. Migrantlarning boshqa xorijiy migrantlardan farqli tarafi, migrantlar mavsumiy harakterga ega bo‘lib, yoz oyalarida migratsiya oqimi maksimal darajaga chiqishi qish faslida esa oqim minimal darajaga tushishi bilan ajralib turadi. Undan tashqari, Rossiya federatsiyasida 5 turdagи xorijiy mehnat migrantlarning o‘ziga xos tarmoq konsentratsiya ya’ni mehnat migrantlarining qaysi ish bilan bandligini tavsiflovchi hududi aniqlangan bo‘lib, ular quyidagicha:

- Birinchi hudud qurilish sohasida band migrantlar; bu hududlarga Smolensk, Yaroslavl, Rostov, Samara viloyatlari, Krasnodar o‘lkasi va boshqalar
- Ikkinci hudud transport hizmatida band bo‘lgan migrantlar; Kaliningrad va Kaluga viloyatlarini o‘z ichiga oladi;
- Uchinchi hudud sanoat va ishlab chiqarishda band bo‘lgan mehnat migrantlari; bu hududlar Rossiyaning markaziy va shimoli-g‘arbiy mintaqalari;
- To‘rtinchi hudud savdo va xizmat ko‘rsatish sohasida band bo‘lgan migrantlar, Bryansk, Oryol, Saratov, Penza Stavropol o‘lkasi, Ural, Oltoy va Primorsk o‘lkalarining viloyatlari;
- Besinchi hudud - qishloq va o‘rmon xo‘jaligida migrantlar zich joylashgan hududlar - Kareliya, Qalmog‘iston, Novgorod, Volgograd, Astraxan, Kirov, Omsk, Amur viloyatlari, Krasnoyarsk va Xabarovsk o‘lkalari kiradi [3,42-43 b]. Ma’lumki, demografik - tug‘ilish, o‘lim, nikoh va ajralish bilan bog‘liq jarayonlar FHDYO (ya’ni fuqarolik holatlarini davlat ro‘yhatiga olish) organi tomonidan ro‘yhatga olinsa, migratsiya jarayonlari bilan bog‘liq ma’lumotlar esa IIB (Ichki ishlar bo‘limi) nazorati orqali to‘planadi. Migratsiya jarayonlarida emmigrantlar va immigrantlar salmog‘i katta o‘rin egallaydi. Shuningdek, emmigrantlar va immigrantlar salmog‘i orasida farqlar va tafovutlarga turli omilar sabab bo‘ladi. Har bir hududda migratsiya jarayoni o‘z-


o‘zidan shakllanib qolmagan. Tabiiy holatda migratsiya jarayoni shartli ravishda quyidagi omillar natijasida shakllanadi:

- Siyosiy omillar
- Ekologik omillar
- Iqtisodiy – ijtimoiy omilllar
- Demografik omilar [2,220 b]

Ayni vaqtida Xo‘jaobod tumanida ham aholining mehanik harakati yildan-yilga oshib bormoqda. Buni quyidagi ko‘rsatkichlardan ham bilish mumkin. Xo‘jaobod tuman statistika ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yilda immigrantlar soni 44 kishini tashkil etgan. Ma’lumotlarga asosan, immigrantlarning katta qismi - Qirg‘iziston davlatidan ko‘chib kelgan fuqarolardir. Immigrantlar soni 2015-yilda 52 kishini, 2018-yili 212 kishini, 2019-yili esa 589 kishi, 2021-yili esa 168 kishi rasman immigrant sifatida ro‘yhatdan o‘tgan. Shu yerda bir savol tug‘iladi nima uchun qo‘shti Qirg‘izistondan ko‘chib keluvchilar soni 2010-yildan so‘ng ko‘paygan? Bunga turli hil sabablar bo‘lishi bilan birga, Qirg‘iziston Respublikasidagi 2009-yil o‘zbek va qirg‘iz millati orasidagi turli hil nizolar natijasi ham sabab bo‘lgan. Natijada Xo‘jaobod tumaniga immigrant o‘zbeklarning ko‘chib kelishi kuzatilgan.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 5-sentabr kuni Qirg‘iziston Respublikasiga tashrif buyurgan. Tashrif natijasida o‘zbek-qirg‘iz davlat chegarasi haqidagi shartnomaning kelishilgan qismi imzolangan. Shuningdek, O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegarasining ayrim uchastkalari haqidagi shartnomalar tuzilgan. Bunda chegarani delimitatsiya va demarkatsiya qilish, chegaraoldi muammolarini hal etish masalalari ko‘rilgan. Bu imzolangan shartnomalar Xo‘jaobod tumanı mehanik harakatlarga o‘z ta’sirini ko‘rsatdi hamda emmigratsiya va immigratsiya jarayoni nisbatan balandlashishiga yordam berdi.

Tumanning **emmigrantlar** bilan bog‘liq jarayonlar ham huddi **immigrantlar** kabi yildan yilga oshayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘rsatkichlarni tahlil qilsak, emmigrantlar soni 2010-yilda 150 kishi, 2015-yilda 280 kishi, 2018-yilda 211 kishi, 2019-yilda 501 kishi, 2021-yilda esa 388 kishini tashkil etdi. 10 yil oralig‘idagi emmigrantlar hisobining minimal ko‘rsatkichi 2010-yilda va maksimal ko‘rsatkich esa 2019-yilda tashkil etdi. 2019-yildagi emmigratsiya holatini pandemiya bilan bog‘lash mumkin. Pandemiya natijasida tuman hududiga ko‘chib keluvchi va ko‘chib ketuvchilar soni oshgan. Tahllarda immigrantlar va emmigrantlar hisobini olgan holda, migratsiya saldosi keltirib chiqarilsa, 10 yil mobaynidagi natijalarning deyarli barchasi minus saldoqa, faqat 2019-yilda mehanik ko‘payish 88 kishiga ko‘payganini guvohi bo‘lamiz. Shuni alohida ta’kidlash joizki, migratsiya ko‘rsatkichlarini hisobga olishda faqat tashqi migratsiya ko‘rsatkichlari hisobga olinadi. Chunki ichki migratsiya uchun alohida ro‘yhat talab etmaydi.



Xo‘jaobod tumani Ichki ishlar bo‘limi tomonidan berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, tumanda jami uzoq muddatda yuruvchi migrantlar 5589 nafarni tashkil etib, ro‘yhatda 20 ta davlatda rasman tasdiqlangan bo‘lib, shundan eng ko‘p uzoq muddatga ketgan shaxslarning davlatlar hisobi bo‘yicha:

- Rossiya Federatsiyasi 3615 nafar,
- Qirg‘iziston Respublikasida 1496 nafar,
- Qozog‘iston Respublikasida 229 nafar,
- Turkiya davlatida 91 nafar,
- Amerika qo‘shma shtatlarda 34 nafar,
- Janubiy Koreya Respublikasida 32 nafar,

Birlashgan Arab Amirligida 17 nafar, Suriyada 13 nafar, Latviya davlatida 11 nafar, Saudiya Arabiston davlatida 9 nafar, Buyuk Britaniya hamda Ukrainada davlatida 6 nafardan, Germaniya davlatida esa 4 nafar O‘zbekiston fuqarolari mavjud. Yuqoridagi keltirilgan raqamlardan bilishimiz mumkinki, tumanda Rossiya Federatsiyasi, Qirg‘iziston va Qozog‘iston Respublikasida uzoq muddatga yuruvchilar soni ko‘pligi bilan ajralib turibdi. E’tiborlisi, migrantlarning deyarli ko‘p qismi mehnat migrantlari hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Xo‘jaobod tumani aholisi migratsiya harakatlarida faol ishtirok etmoqda. Yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlar tahlillaridan aniq bo‘ladiki, hududlarda migrantlarining harakatini faoliyati mavjud. Tumanda migratsiya jarayoniga - siyosiy, demografik, iqtisodiy-ijtimoiy omillarning barchasi ta’sir etmoqda. Albatta, bu tumanning mehnat

resurslarining tarkibidagi o‘zgarishlarga, mehnatga layoqatli aholining yosh, jins tarkibiga va aholining hududiy joylashuvidagi holatlarga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiyasi - T.: «Noshir», 2019, - 131b
2. Tojiyeva Z.N, Do‘smonov F.A. Demografiya -T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбaa уйи», 2020, -
3. Е.Е. Письменная, С.В. Рязанцев, В.С. Тикунов, «ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ В КОНТЕКСТЕ ЕВРАЗИЙСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ» ВЕСТН. МОСК. УН-ТА. СЕР. 5. ГЕОГРАФИЯ. 2014, - 42,43 стр
4. Xo‘jaobod tuman statistika ma’lumotlari. 2021